AUTIZMLI BOLALAR BILAN ISHLASH

Abdurasulova Nodira Abjalovna
Bo’stonliq tumani 4-DMTT logopedi

Annotatsiya: *Autizm atamasi ostida “Reallikdan uzilish, odamovilik, tashqi ta’sirlarga reaksiyaning yo‘qligi yoki reaksiyaning aqlga to‘g‘ri kelmasligi, passivlik va atrof-muhit bilan aloqalardagi o‘ta noziklik” tushuniladi. Autizm simptom sifatida yetarlicha ko‘p psixik buzilishlarda uchraydi, biroq ba’zi holatlarda u juda erta (bola hayotining dastlabki yillari va hatto oylarida) namoyon bo‘ladi, klinik qiyofada markaziy, yetakchi o‘rinni egallaydi va bolaning butun psixik og‘ir salbiy ta’sir ko‘rsatadi.*

Kalit so’zlar: *psixik rivojlanish,autism,austik buzilish, indefferrent munosabat, taktil holat.*

Autizm atamasi ostida “Reallikdan uzilish, odamovilik, tashqi ta’sirlarga reaksiyaning yo‘qligi yoki reaksiyaning aqlga to‘g‘ri kelmasligi, passivlik va atrof-muhit bilan aloqalardagi o‘ta noziklik” tushuniladi. Autizm simptom sifatida yetarlicha ko‘p psixik buzilishlarda uchraydi

Bu holatda klinik modeli o‘ziga xoslik – psixik rivojlanishning noto‘g‘ri – buzilgan varianti hisoblanadigan erta yoshdagi bolalar autizmi sindromi (EBA) to‘g‘risida so‘zlash o‘rinli bo‘ladi. EBA da alohida psixik vazifalar patologik jihatdan tezkor rivojlangan bir vaqtda ba’zi psixik funksiyalar o‘ta sekin rivojlanadi.

Demak, ko‘pincha gnozis rivojlanishi praksisdan ilgarilab ketadi (me’yoriy psixik rivojlanishda aksincha bo‘ladi), ba’zida esa yoshga ko‘ra boy lug‘at zaxirasi nutqning butkul rivojlanmagan kommunikativ vazifasi bilan uyg‘unlashib boradi.

Tadqiqot ob’ekti. Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan qabul qilingan mezonlarga ko‘ra shaxsda autistik buzilish bo‘lganida quyidagilar kuzatiladi:

- ijtimoiy o‘zaro harakat sohasidagi sifatga oid buzilishlar;
- muloqotga qobiliyatning sifatga oid buzilishlari;
-faoliyatni turlari va qiziqishlariga nisbatan cheklangan takrorlanuvchan va stereotipli axloq modeli.

L.Kanner fikriga ko‘ra, EBA sindromining asosiy belgilari simptomlar uchligi hisoblanadi:

– autistik kechinmalar bo‘lgan autizm;

– savdoyilik elementlari bo‘lgan stereotipli, bir xildagi axloq;

– nutqiy rivojlanishning o‘ziga xos buzilishi Autizm 3-5 yoshda birmuncha yaqqol namoyon bo‘ladi va erta yoshdagi xarakterli ko‘rinishlar deb quyidagilarni aytish mumkin bo‘ladi: autistik sindromi bo‘lgan bola, ayniqsa, boshqa odamlar yuzi, chehradagiboshqa qismlarga nigohini qayd qilmaydi, bevosita ko‘rishga oid “ko‘z-ko‘zga” nigohlar aloqasiga chidash bermaydi; dastlabki jilmayish garchi o‘z vaqtida paydo bo‘lsa-da, aniq kimgadir

yo‘naltirilmaydi, boshqa odamlarning kulgusi, shodligi, boshqa affektiv reaksiyalari bilan qo‘zg‘almagan bo‘ladi; atrofdagilarga indifferent munosabatda bo‘ladi:

karavot, manej, aravachada qolishni afzal ko‘rgancha qo‘llariga olishlariga intilmaydi, qo‘lga olganda moslashmaydi, qulay pozani tanlamaydi, bezovtalanadi; tayyorlik pozasini namoyish qilmaydi yoki uni juda so‘lg‘in namoyon etadi; ayni vaqtda hammaga qo‘liga olishi uchun oson boradi; o‘zining yaqinlarini taniydi, ammo bunda u yetarlicha boy va davomli hissiy reaksiyani namoyish qilmaydi; autizmi bo‘lgan bola erkalashlariga g‘ayrioddiy munosabatda bo‘ladi: ba’zida

loqayd (unga chidaydi) yoki hatto xush ko‘rmaydi, biroq hatto agar yoqimli hissiyot va kechinmalarni his qilsa-da, unda tezda charchaydi; noqulaylik lahzalariga munosabat (masalan, ovqatlanish tartibining buzilishi) paradoksal bo‘ladi: autistik spektrdagi bola yoxud ularga bardosh bermaydi, yoxud ularga befarq bo‘ladi; boshqa odamlar bilan aloqaga ehtiyoj ham paradoksal: bir

holatda bola bunday ehtiyojni his qilmaydi yoki tezda to‘yib qoladi, aloqadan qochishga harakat qiladi; hiyla og‘ir holatlarda aloqaga (ayniqsa, taktil) befarq, so‘lg‘in munosabatda bo‘ladi. Autizmi bo‘lgan shaxslarga yordam tizimi dastlab XX asrning 60-yillarida AQSh va G‘arbiy Yevropada shakllandi. Biroq shuni ta’kidlash kerakki, Yevropada (dunyoda) autistic bolalar uchun ilk maktab hisoblanmish Sofienskole Daniyada 1920 yili ish boshladi, bu vaqtda na psixiatriyada, na maxsus pedagogikada bolalar autizmi tushunchasi hali shakllanmagandi.

Olimlar bolalarda autizmning kelib chiqish sabablarini hali-xanuz aniqlay olishgani yo’q. Mazkur masalaga oid nazariyalar juda ko’p, biroq ulardan birortasi ham klinik tasdig’ini topganicha yo’q. Aksariyat olimlarning fikricha, bolalar autizmi irsiy kasallik, lekin autist bolalar soppa-sog’ oilalarda ham dunyoga kelishmoqda.

Olimlarning aniqlashicha, ko’pincha autizm birinchi farzandda qayd etiladi. Mazkur kasallikka homiladorlik davrida onadagi virusli infeksiya (qizilcha, qizamiq, suvchechak) sabab bo’lishi ehtimoldan holi emas.

Kattalardagi autizm ruhiyatning jiddiy buzilishi bilan ifodalanib, atrofdagi olamga moslashish va ijtimoiylashish darajasini keskin pasaytiradi. Erta yoshda bu kasallikka tashxis qo’yish juda mushkul. Negaki, hatti-xarakatidagi turli motorik va nutqidagi o’ziga xosliklarni kattalar bolaning yoshiga va fe’l-atvoriga oid deb hisoblashlari mumkin. Biroq katta yoshda autizm alomatlari atrofdagilarga yaqqol sezilib qoladi. Mazkur xastalik etiologiyasi haligacha to’liq o’rganilmagan. Irsiy va gen o’zgarishiga oid farazlar mavjud xolos. Boz ustiga, autizm bilan ko’pincha erkaklar xastalanishadi.

Katta yoshli odam autizmdan qiynalsa, darrov ko’zga tashlanib qoladi. U sodir bo’layotgan voqea hodisalarga befarq qaraydi, hissiyotga berilmaydi va o’ta loqayd bo’ladi. Odam xuddi o’z dunyosida yashayotgandek tuyuladi. U begonalar bilan istaristamas muloqotga kirishadi. Faqat qarindoshlari va yaqin kishilari bilan munosabatda bo’ladi. Autistlarni quruq gapdan ko’ra sukutni afzal biladigan introvertlardan ajrata bilish muhimdir. Autistlarning aqliy qobiliyati past bo’ladi, ko’rsatkichi 50 dan oshmaydi va biror nimani o’rganishi juda qiyin.

XULOSA

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, autistik spektrida buzilishi bo‘lgan bolalar bilan ishlashda:

– majmuaviylikka, ya’ni ota-onalarning pedagoglar, psixologlar va shifokorpsixiatrlar bilan muntazam ravishda o‘zaro harakat qilishlariga e’tibor qaratish zarur;

– asosiy sa’y-harakat emotsional sohani korreksiyalashga, bolani emotsional

jihatdan yaxshilashga yo‘naltirilishi darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Аутичный ребенок: проблемы в быту. / Под ред. С.А.Морозва. – М., 1998.

2. Каган В.Е. Аутизм у детей. – Л., 1981.

3. Каган В.Е. Преодоление. Неконтактный ребенок в семье. – СП6., 1996.

4. Уэлч М.Холдинг терапия; Китахар К. Ежедневная жизненная терапия; Кауфманы Б. и

С. Оптимальные условия;

5. Шоплер Э., Ланзинд М., Ватерс Л. Поддержка аутичных и отстающих в развитии детей

(0-6 лет). / Сборник упражнений для специалистов и родителей по программе TEACH.

– Минск: Открытые двери, 1997.